

**FUQAROLIK HUQUQIDA BOSHQA SHAXS
MANFAATLARINI KO'ZLAB TOPSHIRIQSIZ HARAKAT
QILUVCHI SHAXS MANFAATLARINI HIMOYA QILISH
MASALALARI**

Toshpulatova Farzona Jahongir qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti 3-kurs talabasi

farzonatoshpulatova725@gmail.com

Annotasiya. “Negotiorum gestio” atamasining ma’nosi hech qanday topshiriqsiz begona shaxslarning manfaatlari yo’lida harakat qilish hisoblanadi. Begona shaxs manfaatlari ko’zlab harakat qilish institutining tomonlari manfaatdor shaxs va amalda topshiriqsiz begona shaxs manfaatlari ko’zlab harakat qilayotgan shaxslardir. Avvalambor, harakatlar begona shaxs manfaatlari ko’zlab harakat qilayotgan shaxsning tashabbusi bilan boshlanishi kerak. Harakatlar boshqa shaxs manfaatini ko’zlagan bo’lishi, uning maqsad va zaruriyatlariga mos bo’lmog’i, ya’ni manfaatdor shaxs uchun foydali bo’lishi zarur. Shaxsning haqiqiy yoki ehtimol tutilgan niyatlardan kelib chiqib hamda ishning holatlariga ko’ra zarur g’amxo’rlik va ehtiyotkorlik bilan qonunga zid bo’lmagan tarzda amalga oshirilishi lozim.

Kalit soʻzlar: Negotiorum gestio (boshqa shaxsning manfaatlari ko’zlab topshiriqsiz harakat qilish), gestor manfaatlari, zaruriy ehtiyotkorlik, qilonalik, kasbiy majburiyat, mulkiy zarar.

**ISSUES OF PROTECTION OF THE INTERESTS OF
INDIVIDUALS ACTING WITHOUT ASSIGNMENT FOR THE
INTERESTS OF OTHER PERSONS IN CIVIL LAW**

Toshpulatova Farzona Jahongir qizi

3rd year student of Tashkent State University of Law

farzonatoshpulatova725@gmail.com

Abstract. The meaning of the term "negotiorum gestio" is to act for the benefit of the beneficiary without any assignment. The parties of the institution of negotiorum gestio are the beneficiary and the persons acting in the interests of the stranger. First of all, actions must be initiated by a person acting in the interests of the stranger. Actions should be aimed at the profit of the beneficiary, should correspond to his goals and needs, that is, should be useful for the beneficiary. It must be done without breaking the law, based on the actual or possible intentions of the individual and with due care and caution according to the circumstances of the case.

Key words: Negotiorum gestio (acting without commission in the interests of another person), gestor interests, necessary caution, reasonableness, professional obligation, property damage.

Shunday holatlar ham yuz berishi mumkinki, bir shaxs hech qanday topshiriqsiz, hech qanday vakolat olmagan holda boshqa bir shaxsning manfaatlari yo'lida harakat qiladi. Shu o'rinda savol tug'ilishi tabiiy, bunday harakatlarni amalga oshirish qandaydir huquqiy oqibat keltirib chiqaradimi yoxud bunday harakat qilish tartib-taomillari biror-bir qonunchilik normalari orqali tartibga solinganmi?

Boshqa shaxsning manfaatlarini ko'zlab topshiriqsiz harakat qilish birinchi o'rinda rim xususiy huquqida tartibga solingan, ya'ni negotiorum gesto instituti doirasida. "Negotiorum gestio" atamasining lug'aviy ma'nosi-topshiriqsiz begona shaxslarning manfaatlarini himoya qilish yoki g'amxo'rlik qilish hisoblanadi, gestor esa, amalda topshiriqsiz begona shaxsning manfaatini ko'zlab harakat qilayotgan shaxsdir. Rim elitasi orasida do'stlik va sadoqat tushunchasi mavjud bo'lgan va shu bilan birga o'zaro yordam va qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega hisoblangan. Qonuniy majburiyat deb hisoblanish o'rniga yordam va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-axloqiy majburiyatlar sifatida qaralgan. Urush bo'lgan zamonlarda bunday munosabatlar ham huquqiy asos bilan tartibga solina boshlagan.¹

Bundan tashqari, rim xususiy huquqida shartnomalarga o'xshash harakatlar asosida majburiyatlarning kelib chiqish asoslari quyidagilarga bo'linadi:

1. Negotiorum gestio;

2. Bir shaxsning ikkinchi shaxs hisobiga asossiz ravishda boyib ketishi natijasida.

Negotiorum gestio- ko'pincha bir shaxsning o'z mulkini boshqara olmaslik yoki uning uzoq vaqt davomida mulk joylashgan hududda bo'lmaslik oqibatlaridan kelib chiqqan.

¹ The Doctrines of Contract and Negotiorum Gestio in European Private Law: Quest for Structure in a No Man's Land of Legal Reasoning, RESTITUTION LAW REVIEW (RLR) 2015

Asossiz boylik orttirish oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlar deganda, qadimgi rimliklar qonunlarda, shartnomlar yoki bitimlarda belgilangan asoslar bo'lmay turib boshqa shaxslarning hisobidan mulk orttirishligi tushunilgan².

Bunday majburiyatlarning asosi qandaydir shartnoma tuzishdan ham, zarardan, ya'ni deliktdan ham kelib chiqmaydi, ular bir tomonlama bitimlar tuzish yoki bir qancha boshqa harakatlarni amalga oshirishdan kelib chiqishi mumkin. Shuningdek, boshqa shaxsning manfaatini ko'zlab topshiriqsiz harakat qilish SSR ittifoqi va unga ittifoqdosh bo'lgan respublikalarning fuqarolik qonunchiligida ham "de-yure" instituti doirasida mavjud bo'lgan.

Bizning amaldagi Fuqarolik Kodeksimizning 47-bobi begona shaxsning manfaatini ko'zlab topshiriqsiz harakat qilishga bag'ishlangan, bu bob o'z ichiga 826-831-moddalarni qamrab oladi. Shu o'rinda bu institutning ahamiyatiga to'xtalib o'tsak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksimizning 826-moddasiga muvofiq, begona shaxs manfaatlarini ko'zlab harakat qilish ma'lum shartlarga va qoidalarga mos kelishi lozim. Avvalambor, harakatlar begona shaxs manfaatlarini ko'zlab harakat qilayotgan shaxsning tashabbusi bilan boshlanishi kerak. Harakatlar boshqa shaxs manfaatini ko'zlagan bo'lishi, uning maqsad va zaruriyatlariga mos bo'lmog'i, ya'ni manfaatdor shaxs uchun foydali bo'lishi kerak. Shaxsning haqiqiy yoki ehtimol tutilgan niyatlardan kelib chiqib hamda ishning holatlariga ko'ra zarur g'amxo'rlik va ehtiyotkorlik bilan qonunga zid bo'lmagan tarzda amalga oshirilishi lozim.

Begona shaxs manfaatlarini ko'zlab harakat qilish institutining tomonlari manfaatdor shaxs va amalda topshiriqsiz begona shaxs manfaatlarini ko'zlab harakat qilayotgan shaxslardir. Ular yuridik shaxs ham jismoniy shaxs ham bo'lishi mumkin. Ammo, yuqorida nazarda tutgan qoidalarimiz davlat organlari

² Oral Ernazarov "Rim huquqi", darslik; 2005

va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining boshqa shaxslar manfaatlarini yo'lida amalga oshiradigan harakatlariga nisbatan qo'llanmaydi³. Misol uchun, "Vatan" mahallasida 80 yoshli hech kimi yo'q Normurod ota yashaydi. Uning qo'shnisi hech kimi yo'qligi sababli unga g'amxo'rlik qiladi. Ikkinchi holatda esa, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hech kimi yo'qligi sababli Normurod otaga g'amxo'rlik qiladi. Misol sifatida keltirgan birinchi holatimizda Normurod otaning qo'shnisi begona shaxsning manfaatini ko'zlab topshiriqsiz harakat qilish institutining tarafi bo'la oladi, negaki, uning harakatlari ushbu bob qoidalariga mos keladi, ya'ni harakatalar qo'shnisining tashabbusi bilan amalga oshirilyapti hamda manfaatdor shaxs uchun bu harakatlar foydali. Ikkinchi holatda esa, Normurod otaga g'amxo'rlik qilayotgan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari begona shaxsning manfaatlarini ko'zlab topshiriqsiz harakat qilish institutining subyekti bo'la olmaydi. Chunki, mahallasidagi qarovsiz kishilarga ga'mxo'rlik qilish ularning kasb majburiyatlaridan kelib chiqadi. Yana bir misol keltiradigan bo'lsak, bir qo'shning uyi ular yashash joyida bo'lmagan vaqtda yonib ketdi, uni ko'rgan boshqa qo'shni suv yordamida yong'inni o'chirishga qo'shnisining topshirig'isiz uning manfaatlarini ko'zlab harakat qildi. Ikkinchi holatda esa, yong'in uyi yonib ketgan shaxsning topshirig'isiz o't o'chirish xizmati xodimlari tomonidan bartaraf etildi. Birinchi holat, biz yuqorida tahlil qilib kelgan qoidalarga mos tushadi, ammo ikkinchi holat boshqa shaxs manfaatlarini ko'zlab topshiriqsiz harakat qilish instituti shartlariga to'g'ri kelmaydi, negaki, u o't o'chirish xodimlarining kasbiy vazifasidan kelib chiqadi.

Fuqarolik Kodeksning 827-moddasida begona shaxsning manfaatini ko'zlab harakat qilayotgan shaxsga qo'yiladigan asosiy talablar o'rnatib qo'yilgan. Avvalambor, boshqa shaxs manfaatlarini ko'zlab, uning

³ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 826-moddasi (tahlilii) <https://lex.uz/docs/180552>

topshirig'isiz harakat qilayotgan shaxs birinchi imkoniyat bo'lishi bilanoq, bu haqda manfaatdor shaxsga xabar berishi kerak. Agar manfaatdor shaxs ma'qullaydigan bo'lsa, shartnoma tuzilgan hisoblanadi. Biroq, manfaatdor shaxs ma'qullamasa, javobgarlik begona shaxs manfaatini ko'zlab harakat qilayotgan shaxsga yuklatiladi. Bundan tashqari, bu moddada boshqa shaxsning manfaatini ko'zlab harakat qilayotgan shaxs ma'lum bir sabablarga ko'ra, manfaatdor shaxsga xabar bera olmay qolsa, o'z harakatini davom ettirishi lozim, ammo uning bu harakatlari manfaatdor shaxsga salbiy oqibatlar keltirib chiqarmasligi kerak. Bundan tashqari, boshqa shaxs manfaatlarini ko'zlab harakat qilayotgan shaxs birinchi imkoniyat bo'lishi bilanoq, manfaatdor shaxsni ogohlantirmaydigan bo'lsa, u o'zi sarf qilgan xarajatlarni qoplashni talab qila olmaydi.

Topshiriqsiz qilingan harakatlardan manfaatdor bo'lgan shaxs uning manfaatlarini ko'zlab ish olib borgan shaxsga zarur xarajatlarni va boshqa haqiqiy zararlarni qoplashi shart. Shuningdek, harakatlanayotgan shaxs ish holatlari bo'yicha barcha zaruriy ehtiyotkorlik va g'amxo'rlik choralarini ko'rishi kerak, ya'ni manfaatdor shaxsning o'zi aynan shunday holatga tushib qolgan paytda qanday yo'l tutishi kerak bo'lsa, harakatlanayotgan shaxs tomonidan ham harakatlar shunday oqilonalik bilan amalga oshirilishi darkor.

Shuningdek, boshqa shaxs manfaatlarini ko'zlab harakat qilgan shaxs kimning manfaatini ko'zlab shu faoliyatni amalga oshirayotgan bo'lsa, o'sha shaxsga olingan daromdlar, qilingan xarajatlar va ko'rilgan zararni ko'rsatgan holda hisobot berishi shart⁴.

Suxanovning fikricha, boshqa shaxs manfaatlarini ko'zlab topshiriqsiz harakat qilish tushunchasi ikki xil majburiyatlardan kelib chiqadi:

⁴ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, 831-modda. <https://lex.uz/docs/180552>

Birinchi, birovning shaxsiga yoki mulkiga zarar yetkazilishining oldini olish maqsadida qilingan harakatlardan kelib chiqadigan majburiyatlar, misol sifatida hayoti, sog'lig'i, mulkini saqlab qolish uchun qilingan harakatlarni keltirishimiz mumkin.

Ikkinchi, bitim bilan bog'liq holatda yuzaga keladigan majburiyatlar, masalan, yo'q shaxsning mulkini ta'mirlash yoki himoya qilish uchun shoshilinch to'lovlarni amalga oshirish.

Ko'rib chiqilayotgan majburiyatlarning yana bir mazmuni manfaatdor shaxsning bunday harakatlarni sodir etgan shaxsga xarajatlarini qoplash majburiyatidir. Shuningdek, bu institut doirasida ko'zlangan natijaga erishish muhim ahamiyat kasb etmaydi. Bu majburiyatlarda haqiqatdan ham tovon miqdori yetkazilgan zarar bilan cheklanadi. Biroq, o'rnini qoplash haqqining miqdori mol-mulkning qiymatidan oshib ketmasligi kerak.

Shunday holatlar ham sodir bo'lishi mumkinki, birovning manfaatlarini ko'zlab harakat qilish natijasida manfaatdor shaxslarga yoki uchinchi shaxslarga mulkiy zarar yetkazilishi mumkin⁵. Masalan, fuqaro S fuqaro D ning manfaatlarini ko'zlab oqilona tarzda harakat qildi, lekin ehtiyotsizlik oqibatida uning narsasini buzib qo'ydi. Bu holatda fuqaro S tomonidan fuqaro D ga yetkazilgan zarar shartnomadan tashqari zararni qoplash to'g'risidagi umumiy qoidalarga muvofiq qoplanishi kerak. Agar birovning manfaatini ko'zlab ish ko'rayotgan shaxs mulkiy zarar yetkazgan bo'lsa, lekin shu bilan birga ishning holatlari uchun oqilonalik, ixtiyoriylikka rioya qilgan bo'lsa, u zararni qoplash majburiyatidan ozod qilinadi.

Boshqa xorijiy davlatlarda ham Negotiorum gestio instituti doirasida gestor manfaatlarining himoya qilinishini tahlil qilib chiqish maqsadga muvofiq. Avvalambor, Xitoy fuqarolik huquqiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Negotiorum

⁵ РОССИЙСКОЕ ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО, Ответственный редактор – заслуженный деятель науки РФ, доктор юриди- ческих наук, профессор Е.А. Суханов

gestio alohida Kvazi –shartnomlar bobida, xususan, XXVIII bobda alohida tartibga solingan. Xitoy Fuqarolik Kodeksining 979-moddasida agar na qonunda na shartnomada ko'rsatilgan majburiyatga ega bo'lmagan shaxs uning manfaatlari bo'yicha harakat qilayotgan bo'lsa, ko'rsatilgan shaxs foyda oluvchidan u uchun qilingan zarur xarajatlarni qoplashni talab qilishi mumkin. Agar boshqa shaxs manfaatlarini ko'zlab harakat qilayotgan shaxs ishlarni boshqarishda zarar ko'rgan bo'lsa, manfaatdor shaxsdan tegishli kompensatsiyani ham qoplashni talab qilishi mumkin. Shuningdek, boshqa shaxsnining ishlarini boshqarish benefitsiarning haqiqiy irodasiga zid bo'lsa, ammo gestorning haqiqiy irodasi qonunni buzmasa yoki jamoat tartibiga yoki yaxshi axloqqa zid bo'lmasa, benefitsiar gestordan zararlarni talab qilish huquqiga ega emas⁶.

Bundan tashqari, Flippin Fuqarolik Kodeksida kim boshqa shaxsning mulki yoki mulkini boshqarishni ixtiyoriy ravishda, uning vakolatisiz o'z zimmasiga olsa, ish va uning hodisalari tugatilgunga qadar shu ishni davom ettirishi yoki o'z zimmasiga olgan shaxsdan talab qilish shartligi belgilangan⁷.

Xulosa

Yuqorida Negotiorum gestio institutining ahamiyati, unda gestor manfaatlari qanday himoya qilinishi haqidagi masalalarni fuqarolik qonunchiligimiz hamda boshqa davlatlar fuqarolik qonunchiligi doirasida tahlil qilib, o'rganib chiqdik. Boshqa shaxs manfaatlarini ko'zlab topshiriqsiz harakat qilish shartnomlarga o'xshash harkatlar asosidagi majburiyatlardan kelib chiqishini o'rgandik. Ya'ni begona shaxsning manfaatini ko'zlab topshiriqsiz harakat qilish munosabatlari shartnomadan tashqari, bir tomonlama harakterga

⁶ Civil Code of the People's Republic of China <https://www.chinajusticeobserver.com/law/x/civil-code-of-china-part-iii-contract-2020052>

⁷ An act to ordain and institute the Civil Code of the Philippines <https://www.studocu.com/ph/document/de-la-salle-lipa/accountancy/civil-code-of-the-philippines/12185313>

ega. Mazkur munosabatlar tabiiy, axloqiy tushunish bo'yicha fuqaroning sog'lig'i yoki hayotiga yoxud o'zlari haqida ga'mxo'rlik qila olmaydigan shaxslarning mulkiy manfaatlariga zarar yetkazilishini bartaraf qilish maqsadida vujudga kelgan.

Bu mavzuni o'rganib, tahlil qilish asnosida men quyidagi **takliflarni** berib o'tmoqchiman.

Birinchi taklifim, begona shaxs manfaatlarini ko'zlab topshiriqsiz harakat qilish institutini Fuqarolik Kodeksimizdagi shartnomlar bo'limidan chiqarishimiz lozim. Yuqorida tahlillarimizda batafsil ko'rgan edik, Xitoy Fuqarolik Kodeksida ham, Rim xususiy huquqida ham bu institut alohida Kvazi-shartnomlar bo'limidan joy olgan. Biz ham alohida Kvazi-shartnomlar bo'limida uni joylashtirsak, maqsadga muvofiq bo'ladi, deb hisoblayman.

Ikkinchi taklifim, begona shaxsning manfaatini ko'zlab harkat qilish shartlari, taraflar majburiyatlari Fuqarolik Kodeksimizda moddalar orqali tartibga solingan, ammo boshqa shaxs manfaatlarini ko'zlab topshiriqsiz harakat qiluvchi shaxs manfaatlarini himoya qiluvchi modda mavjud emas. Shu sababli, bunday alohida moddani kirtish lozim.

Adabiyotlar/References

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi; <https://lex.uz/docs/180552>
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksiga sharx, 2-jild;
3. Civil Code of the People's Republic of China;
<https://www.chinajusticeobserver.com/law/x/civil-code-of-china-part-iii-contract-2020052>
4. An act to ordain and institute the Civil Code of the Philippines;
<https://www.studocu.com/ph/document/de-la-salle-lipa/accountancy/civil-code-of-the-philippines/12185313>
5. РОССИЙСКОЕ ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО, Ответственный редактор – заслуженный деятель науки РФ, доктор юридических наук, профессор Е.А. Суханов;
6. Oral Ernazarov “Rim huquqi”, darslik; 2005;
7. The Doctrines of Contract and Negotiorum Gestio in European Private Law: Quest for Structure in a No Man's Land of Legal Reasoning, RESTITUTION LAW REVIEW (RLR) 2015
8. Иброҳимов, А. А. Ў. (2021). КОРПОРАЦИЯНИ БОШҚАРИШДА ФИДУЦИАР МАЖБУРИЯТЛАР ВА УЛАРНИ ЎЗБЕКИСТОНДА ҚЎЛЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 841-853.
9. Ibrohimov, A. A. M. O. G. L., & Nechaeva, E. V. (2022). XALQARO INVESTITSIYA HUQUQIDA MILLIY REJIM VA ENG QULAY SHARTLAR REJIMI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 414-425.
10. Ibrohimov, A. A. O., Koryogdiyev, B. U. O., & Tojiboyev, S. Z. (2022). KORPORATIV NIQOBLARNI OLIB TASHLASH KONSEPSIYASI VA UNI O'ZBEKISTON KORPORATIV HUQUQIDA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 1068-1082.
11. O'G'Li, A. A. M. (2022). KORPORATSIYA USTAV KAPITALI FUNKSIYALARI VA UNGA OID MILLIY QONUNCHILIK NORMALARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Academic research in educational sciences*, 3(8), 109-113.
12. Azimjon, I. (2022). ZARAR–YURIDIK SHAXS ISHTIROKCHILARI VA BOSHQARUV ORGANLARI FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIGINING ZARURIY SHARTI SIFATIDA.